AKMEOLOGIK YONDASHUV TEXNOLOGIYASINI O‘QUV JARAYONIDA QO‘LLASH MEXANIZMI

Isroilov Qobuljon Toshtemirovich, Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi,
e-mail: isroilovqobuljon9918@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak tarix o‘qituvchilari kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishda akmeologik yondashuvning ahamiyati va metodologik asoslari, akmeologiya tushunchasi hamda uning vujudga kelishi, akmeologiyada tizimiylik yondashuvining rivojlanish bosqichlari, tarix o‘qituvchilarini akmeologik yondashuv asosida kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishning asosiy ko‘rsatgichlari, shuningdek, akmeologik yondashuv asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash mexanizmlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: “Akmeologiya”, “kasbiy tayyorgarlik”, “akmeologik yondashuv”, “tizimiylik yondashuv”, “N. Ribnikov, A.Derkach”, “intelektual salohiyat”, “kasbiy kamolot”, “kreativlik”.

МЕХАНИЗМ РЕАЛИЗАЦИИ ТЕХНОЛОГИИ АКМЕОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ

Аннотация. В данной статье обсуждается важность и методологические основы акмеологического руководства для повышения профессиональной готовности будущих учителей истории. В ней исследуется понятие акмеологии, ее возникновение и этапы развития в рамках систематического руководства в акмеологии. Кроме того, статья подчеркивает основные показатели улучшения профессиональной готовности учителей истории на основе акмеологического руководства, а также механизмы подготовки студентов к профессиональной деятельности с использованием акмеологического подхода.

Ключевые слова: “акмеология”, “профессиональная готовность”, “акмеологическое руководство”, “систематическое руководство”, “Н. Рибников, А.Деркач”, “интеллектуальные способности”, “профессиональный рост”, “креативность”.

MECHANISM FOR IMPLEMENTING ACMEOLOGICAL EDUCATION TECHNOLOGY IN THE LEARNING PROCESS

Abstract. This article discusses the importance and methodological foundations of acmeological guidance in enhancing the professional readiness of future history

teachers. It explores the concept of acmeology, its emergence, and the stages of development in systematic guidance within acmeology. Additionally, the article highlights the main indicators of improving the professional readiness of history teachers based on acmeological guidance, as well as mechanisms for preparing students for professional activities through acmeological guidance.

Keywords: “acmeology”, “professional readiness”, “acmeological guidance,” “systematic guidance”, “N. Ribnikov”, “A.Derkach”, “intellectual abilities”, “professional growth”, “creativity”.

Kirish. Bugungi kunda malakali mutaxassislar tayyorlash, kasbiy ta’lim-tarbiya tizimi, jamiyatda bo‘layotgan islohatlar oliy ta’lim talabalarining kasbiy tayyorgarligi, kasbiy ta’lim-tarbiya jarayonini jahon andozalariga mos ravishda tashkil qilish, oliy talabalarini yuksak bosqichlarga erishishi, yuqori malakani egallashi hozirgi zamonning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Dunyoda bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni rivojlantirishda akmeologik yondashuvdan kengroq foydalanish, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish, kasbiy tayyorgarlikni modernizatsiyalash, pedagogik kasbiy ta’lim sharoitida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning pedagogik-psixologik mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar jamiyatimizning turli jabhalarida mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, joriy muhitni va jarayonlarning samaradorligini, sifatini oshirish masalalarini qamrab olmoqda. Ayniqsa, ta’lim sohasida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirish, jahon talabiga mos keluvchi yetuk bilim va salohiyatga ega bo‘lgan kadrlarni tarbiyalash kabi masalalar davlat siyosatining muhim jabhalaridan biriga aylanib ulgurdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sonli Farmonida oliy ta’limni modernizasiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha tarmoqlarini rivojlantirish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-sonli qarorida pedagogik ta’lim sohasini yanada takomillashtirish, zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalariga ega, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda munosib hissa qo‘shuvchi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun professional pedagog kadrlar yetkazib berish, sohaga ilg‘or ta’lim texnologiyalarini joriy qilish vazifalari belgilangan bo‘lib, pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligini oshirish va takomillashtirish, ularning bilim-ko‘nikmalarini uzluksiz ravishda shakllantirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish hamda mavjud imkoniyatlardan maksimal darajada foydalangan holda bo‘lg‘usi pedagog kadrlarni keng jamiyatga yetkazib berish vazifasi bugungi kunda oliy ta’lim tizimiga qo‘yilgan eng izchil muammo va vazifalardan biriga aylangan.

Ta’lim sifatini oshirishda akmeologik yondashuv muhim ahamiyatga ega, chunki bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini tayyorlash, akmeologik modelni yaratish

istiqbolini vujudga keltiradi. Zamonaviy jamiyatda o‘zining munosib o‘rni va rolini topishga imkon beruvchi, kasb mahorati va bilimdonlik darajasi, mustaqillik darajasini hamda shaxsning o‘zi jamiyatdagi o‘zining ijtimoiy yetukligi darajasini aniqlashi va ishlab chiqishi lozim. Akmeologiyaning metodologik asosi inson rivojlanishi, kamolga yetishishi bosqichlarida progressiv xarakterga, shaxsiy va kasbiy cho‘qqilarga erishishida psixologik mexanizmlariga ko‘nikish kabilarga yordam ko‘rsatishga hamda e’tiborni kuchaytirishga qaratilgan.

Akmeologiya grekcha “akme”-cho‘qqi, takomil, nimaningdir eng yuqori bosqichi, gullagan davr degan ma’nolarni anglatadi. Akmeologiya – bu insonning yetuklik bosqichidagi rivojlanishi, ayniqsa bu rivojlanishning eng yuqori darajasiga erishishdagi mexanizm va qonuniyatlarni o‘rganadigan tabiiy, ijtimoiy, nazariy va gumanitar fanlarning “tutashgan joyida” paydo bo‘lgan yangi fandir [6, 31-b].

Akmeologiya - insonning ko‘p qirrali rivojlanishini o‘rganadigan fan. U inson hayotining balog‘at davrida uning rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan barcha jihatlarni, jumladan quyidagilarni qamrab oladi:

- balog‘atga yetgan insonning ijodiy faoliyatida ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishda aniqlangan omillar;
- androgogikaning xususiyatlari va professionallikka erishish jarayoni;
- o‘z-o‘zini takomillantirish, o‘zida yetuk shaxsni tarbiyalash, shuningdek, bu jarayonlarda o‘zini nazorat qila bilish;
- faoliyat cho‘qqisiga erishish jarayonidagi ham muvaffaqiyatga erishishga ham unga erishishda to‘sqinlik qiluvchi turli darajadagi (ob’yektiv, sub’yektiv) omillar.

Bo‘lajak tarix o‘qituvchilar shaxsini takomillashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari, yangi holat vaziyatlarning paydo bo‘lishiga reaksiyasi (kasb talablari, ilmiy, texnik, madaniy taraqqiyotning o‘zgarishi), o‘z-o‘zini tashkil qilish, o‘z-o‘zini tuzatish (talabaning ichki va shaxsiy qiziqish va manfaatlaridagi o‘zgarishlar, uning faoliyatining afzalliklari va kamchiliklari, imkoniyatlari va qobiliyatlarini bilish) kabilar.

Shunday qilib, zamonaviy akmeologiya - bu insonning muvaffaqiyati va unga olib keladigan komponentlarni har tomonlama o‘rganishga mo‘ljallangan, ilmiy bilimlarning o‘ziga xos tarmog‘i bo‘lib, unga fan sifatida 1928-yilda N.Ribnikov asos solgan. U bu atamani balog‘at bosqichida inson taraqqiyotini o‘rganish fanining nomi sifatida taklif qilgan. A.A.Derkach va A.A.Bodalev kabi olimlar akmeologiya faniga o‘zlarining hissalarini qo‘shdilar, ular rahbarligida Rossiya Prezidenti huzuridagi Rossiya davlat boshqaruvi akademiyasida birinchi akmeologiya bo‘limi (to‘liq nomi - Akmeologiya va Kasbiy faoliyat psixologiyasi kafedrasi) ochildi. 1992-yilda Sankt-Peterburgda Akmeologiya akademiyasi ochildi va rasman ro‘yxatga olindi [6, 40-b].

Adabiyotlar tahlili. Bo‘lajak pedagog kadrlarni kasbiy tayyorlashda akmeologiyaning nazariy va amaliy masalalaridan foydalanish bo‘yicha tadqiqotlar Angliya, Niderlandiya, AQSH, Malayziya, Germaniya, Turkiya, Kanada, Hindiston kabi davlatlarda, MDH davlatlarida, dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalarida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jumladan, shaxsiy

o‘sish, kasbiy rivojlanish va ijtimoiy o‘zgarishlarning ta’limiy va ommaviy shartlari Liverpool Hope University (Angliya); shaxsiy rivojlanish rejalari Maastricht University Gollandiya (Niderlandiya); bolalarning erta o‘smirlikda kasbiy rivojlanishi: jarayonlar, muammolar, tadqiqot zaruriyati yo‘nalishida akmeologik ilmiy izlanishlar Nebraska universiteti tadqiqot markazida Susan M. Sheridan rahbarligida (Nebraska University, Lincoln City, Nebraska State USA); talabalarda muloqot kompetentligini kuchaytirishning (pedagogik, psixologik, akmeologik) masalalari, Suriani Binti Mohd Kasim rahbarligidagi ilmiy tadqiqot (Mara Technology University, Malayziya) markazida, Belfield pedagogical university (Germaniya), Fatih Universiteti Istanbul (Turkiya), ilmiy pedagogik xodimlarni o‘qitishda akmeologiyani qo‘llash muammolari (Abay nomidagi Qozoq milliy pedagogika universitetida); akmeologik ta’lim asosida kadrlarning individual kompententligini shakllantirish muammosi (Ukrainaning Kiyev davlat universitetida); davlat ta’lim akademiyasiga qarashli akmeologiya fanlari xalqaro akademiyasining akmeologik tadqiqotlar markazi (Rossiya) kabi ilmiy muassasalarda atroflicha o‘rganilmoqda.

Chet el olimlari tomonidan, jumladan: Hull J. G., Van Treurenn R. R., Propsom P. M. atribut uslubi va akmeologik yondashuvning tarkibiy qismlari, K. Thomas shaxsni rivojlantirishning samarali usullari, J.K.Khanna akmeologiyani tatbiq etishda tadqiqotga yo‘naltirilgan ta’lim masalalarini atroflicha ilmiy tadqiq etilishi tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan B. G. Ananyev, A. A. Derkach, Yu. V. Sinyagina, Ye. V. Seleznyova, A. S. Glinskiy, A. M. Derkach, L. G. Gribenyuk, V. O. Ramonova, M. M. Shexterlar ta’limda akmeologik yondashuv muammosini ilmiy tadqiq etganlar.

Akmeologik yondashuvda shaxs rivojlanishi, kasbiy shakllanishi masalalarini A.A.Derkach, Ye.V.Seleznyova, M.G.Sinyakova, E.E.Simanyuk, S.L.Fomenko, N.V.Kuzmina, N.A.Ribnikov va boshqalar ilmiy tadqiq etganlar.

Akmeologik yondashuv bo‘yicha: A.M.Derkach, o‘rta kasb-hunar ta’limidagi akmeologik yondashuv: muammolar va istiqbollar masalasi, Romanova Vera Olegovna, akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchi-psixologlarning kasbiy dunyoqarashini shakllantirish, A. M. Leontyev, akmeologik yondashuv bo‘lg‘usi hayot faoliyati xavfsizligi o‘qituvchilarini kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishning muhim omili sifatida”, Ye. K. Markova, M. M. Shexter, zamonaviy pedagogik kasbiy ta’limda akmeologiyaning roli muammolarini ilmiy tadqiq etganlar [8, 1613-1621].

So‘nggi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar jamiyatimizning turli jabhalarida mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, joriy muhitni va jarayonlarning samaradorligini, sifatini oshirish masalalarini qamrab olmoqda. Ayniqsa, ta’lim sohasida, ta’lim sifatini, kadrlar malakasini oshirish, jahon talabiga mos keluvchi yetuk bilim va salohiyatga ega bo‘lgan kadrlarni tarbiyalash kabi masalalar davlat siyosatining muhim jabhalaridan biriga aylanib ulgurdi.

G. K. Chesterton ta’kidlaganidek, “Ta’lim bu jamiyatning avloddan avlodga o‘tib boruvchi yuragidir”. Har qanday davrda davlat ravnaqida yetuk o‘qituvchi-pedagoglarning ahamiyati beqiyos bo‘lganligi sir emas.

Respublikamiz olimlaridan G. H. Tillayeva, akmeologik yondashuvning muhimligini qayd etgan holda, axloqan pok, intellektual yetuk, yuksak professional kadr - akmeshaxs jamiyatni ijtimoiy - iqtisodiy barqarorlashtirishning asosiy kuchi, jahon standartlariga javob beradigan professional yetuk kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalardan biri, deb ko‘rsatgan. B. Ma’murov, bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini akmeologik yondashuv asosida ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirishni, A. Sh. Saliyev, yoshlarning intiluvchanligini aniqlashda akmeogammaning ahamiyatini va G. O. Ernazarova kasbiy ta’lim jarayoniga akmeologik yondashuvni tadbiq etish masalasini ilmiy tadqiq etganlar.

Bugungi kunning talablariga to‘laqonli javob bera oladigan, nafaqat kasbiy bilimlar balki boshqa zaruriy kompleks bilimlar bilan to‘yintirilgan navqiron yosh kadrlarning kelajakdagi kasbiy faoliyati bugungi kun va unda egallangan bilimlarga bog‘liqdir.

Muhokama. Ma’lumki, shaxsning jamiyatdagi bahosiga qarab, uning o‘z muvaffaqiyatiga va muvaffaqiyasizligiga bo‘lgan munosabati shakllanadi. Ya’ni, shaxs sifatida tan olinish muhim, busiz inson psixologik noqo‘laylik va qiyinchilikni boshdan kechiradi.

Faoliyatning turli sohalarida cho‘qqilarga muayyan sharoitlarda erishish mumkinligini akmeologiya o‘rganadi. Shunga ko‘ra quyidagi qonuniyatlar, zarur shart-sharoitlar belgilangan:

- vaqtni to‘g‘ri tashkil etish;
- hayot yo‘lini tanlashda faol pozisiyani shakllantirish;
- professional va etnik madaniyat;
- shaxsning shaxsiy xususiyatlari va etnopsixologik muhit sharoitlarining uyg‘unlashuvi, yuqoridagilarning shaxsiyatning shakllanishiga ta’siri;
- atrof-muhit va shaxs o‘rtasidagi qarama -qarshiliklarni bartaraf etish uchun qulay shart-sharoitlar;
- kattalar muammolari va vazifalarini samarali hal qilish;
- o‘z imkoniyatlarini bilish, o‘zini takomillashtirish va o‘z hayotining yaratuvchisi sifatida o‘ziga bo‘lgan munosabat.

Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarning akmeologik yondashuv asosida kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishning asosiy ko‘rsatkichlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- akmeologik yondashuv asosida talabalar o‘quv-mehnat faoliyati bo‘yicha shaxsiy va kasbiy sifatini ta’minlash:
- tarix va pedagogik fanlar tajriba hamda mustaqil ishlarini texnologik asoslangan holda tanlash, amaliy pedagogik kasbiy ta’limning o‘quv-moddiy jihozlanishini yuqori darajada ta’minlash;
- mehnatni to‘g‘ri tashkil etish va unga o‘rgatishda pedagogik-psixologik-akmeologik ta’lim metodikasini sifatli tatbiq etish;
- talabalarga o‘zini-o‘zi nazorat qilish, kognitiv, affektiv, psixomotor, kreativ shakllantirish usulida ta’lim berish, ularning tajriba-sinov va o‘quv-ishlab chiqarish ishlarida o‘zaro va jamoatchilik sifat nazoratini qo‘llash;
- o‘zini o‘zi rivojlantirishga yo‘nalgan faoliyatni tashkil etish asosida nuqsonsiz natijaga erishish tizimini yo‘lga qo‘yish;

- amaliy va mustaqil ishlari sifatini oshirishda moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish tizimini joriy etish.

2. Akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining o‘quv bilish faoliyatida yuqori mehnat unumdorligini ta’minlash:

- talabalarning tajriba ishlari va mustaqil ishlash mehnatini pedagogik-fiziologik jihatdan to‘g‘ri me’yorlash;
- maxsus kasbiy fanlar o‘qituvchilari tomonidan nazariy, amaliy va o‘quv-ishlab chiqarish ishlari(pedagogik loyihalar, dars ishlanmalari va h.k.)ni akmeologik texnologiyalar yordamida tashkil etish, talabalarga vaqtdan, jihozlar, uskunalardan oqilona foydalanishga oid yo‘l-yo‘riqlar berish;
- amaliy mashg‘ulotlar va mustaqil ishlarida talabalar tomonidan mehnat unumdorligini oshirish yo‘llarini izlab topishga yo‘naltirilgan maxsus individual topshiriqlarning bajarilishini ta’minlash;
- amaliy va mustaqil ishlarini bajarishda vaqtni tejashga imkon beruvchi, yuqori unumli texnologiyalar qo‘llanilishini yo‘lga qo‘yish.

3. Akmeologik yondashuv asosida talabalar o‘quv bilish faoliyatida kasbiy kompetentlikni egallash:

- kasb asoslarini dastlabki o‘zlashtirishda mehnatning to‘g‘ri usullarini puxta o‘rganish va mustaqil bajarishga erishish;
- tajriba-sinov va mustaqil ishlarini yo‘riq xaritalarni qo‘llash orqali o‘rganish;
- tarix o‘qitish metodikasi ixtisosligini maxsus fanlar o‘qituvchilari tomonidan amaliy pedagogik kasbiy ta’limning barcha bosqichlarida talabalarning mehnat usullaridan to‘g‘ri, samarali foydalanishiga doimiy talabchanlikni ta’minlash, kasbiy motivatsiyani rivojlantirish;
- talabalarning tajriba va mustaqil ishlarida mashq jihozlari va moslamalaridan foydalanish, kasbiy fikrlash, mehnatning to‘g‘ri, samarali usullarini tarkib toptirish;
- mehnat usullarining to‘g‘ri bajarilishini tajriba-sinov va o‘quv-ishlab chiqarish ishlarini baholashning muhim mezonlaridan biri sifatida belgilash.

4. Akmeologik yondashuv asosida talabalarning o‘quv bilish faoliyatida mehnatning ilg‘or usullarini egallash:

- talabalarga amaliy pedagogik kasbiy ta’limning dastlabki bosqichlaridan boshlab egallash mumkin bo‘lgan eng ilg‘or, yangi mehnat usullarini o‘rgatish;
- mehnatning ilg‘or, yangi usullarini egallashga imkon beruvchi tajriba-sinov va o‘quv-ishlab chiqarish ishlarini tanlash;
- talabalarning mehnatning yangi, ilg‘or usullarini egallashlari bo‘yicha maxsus mashqlar, akmeologik yo‘nalgan topshiriqlarni bajarishni tashkil qilish;
- talabalarning malakali ishchi yoki mutaxassis ish o‘rinlarida mehnatning ilg‘or usullarini bevosita o‘rganishlarini akmeologik yo‘nalganlikni tashkil etish [8, 1617 b].

Bo‘lajak tarix o‘qituvchi shaxsini kasbiy faoliyatga tayyorlashni rivojlantirish va shakllantirish uchun avvalo ta’lim jarayonini ilmiy asosda tashkil qilish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun bo‘lajak mutaxassisning qiziqishlarini inobatga olish, uning intilishi va boshqa tashqi omillarini bir-biriga uyg‘unlashtirib, o‘quv faoliyati, shaxs xususiyatlaridan kelib chiqqan holda faolligini oshirib borish nazarda tutiladi.

Har bir bo‘lajak tarix o‘qituvchisida yuqorida ta’kidlanganidek, o‘z, shaxsiy akmesini aniqlab olishi uchun unda o‘sha tanlagan ixtisosligiga nisbatan kuchli undovchi motivlar, hayotda esa muvaffaqiyatlarga erishish motivi yoki yutuqlarga erishish ehtiyoji kuchli rivojlangan bo‘lishi kerak.

Natijalar. Bugungi kunda mutaxassislarga qo‘yilgan zamonaviy talablar pedagogik oliy ta’lim jarayonini innovatsion rivojlantirish, akmeologik yondashuv asosida o‘quv jarayonini tashkil etish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi. Chunki, akmeologik yondashuv bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy ijodkorlikni shakllantirishning ilmiy asosi sifatida ta’lim muassasalarida ta’lim oluvchilarning mazkur jarayon ishtirokchilari, kasbiy faoliyatning yetuk shaxsi va faol sub’yektlari tarzida namoyon bo‘lishlariga asoslanadi hamda ularning sub’yekt va mutaxassis sifatida bosqichma-bosqich, uzluksiz o‘z-o‘zini takomillashtirishi va o‘z-o‘zini rivojlantirishi uchun sharoit yaratadi.

Akmeologik yondashuv asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash mexanizmi

1. Tashkiliy akmeologik ishlar:
- kichik mutaxassisning kasbiy kompetentlik tamoyili;
- akmeologik yondashuv asosida ta’lim oluvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash konsepsiyasi;
- kasbiy ta’lim akmeologiyasi maxsus kurs o‘quv dasturi ishlab chiqilishi;

2. Akmeologik yo‘nalgan tarbiya:
- talabaning individual rivojlanish dasturi, o‘quv portfoliosi;
- psixologik-akmeologik-pedagogik diagnostik tahlillar;
- kasbiy kompetentlik darajasini baholash;
- guruh rahbarining ma’naviyat soatlarini milliy mazmunda boyitish;

3. Akmeologik yo‘nalgan ta’lim:
- o‘qitishda akmetexnologiyalarni qo‘llash;
- akmeologik yondashuv asosida kasbga yo‘naltirilgan o‘qitish;
- kompyuter texnologiyalari va akmetexnologiyalar uyg‘unligida o‘qitish;
- shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarini qo‘llash [9, 124-b].

Binobarin, ta’lim olish, kasbni egallash, kasb mahoratiga erishish, lavozimga ko‘tarilish kabi ijtimoiy omillar, yosh davrlarida inson imkoniyatlarini iste’dodini ochish, mahsuldor kasbiy ijodkorlikka erishishni taqozo etadi. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini akmeologik yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashda ularning fiziologik, aqliy va psixologik jihatlarini individual o‘rgangan holda, kasbiy kompetentligini shakllantirish mumkin.

Xulosa. Bo‘lajak tarix o‘qituvchisida akmeologik fikrlashni shakllantirish va kreativ faoliyat usullari, innovatsiyaga, muvaffaqiyatga, kasbiy mohirlikka intilish, ijodiy potentsialni namoyon etish qobiliyati, akmeologik va umumiy kasbiy madaniyatning zaruriy komponentlari hisoblanadi.

Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining akmeologik yondashuv asosida kasbiy tayyorgarlik sifatinini oshirishning asosiy ko‘rsatgichlari aniqlanadi. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida akmeologik yondashuvni amalga oshirishda: talabalar shaxsini akmeologik rivojlantirish determinantini hisoblash va anglab yetish uchun zarur bo‘lgan pedagoglar bilimlarini faollashtirish, talabalarga kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirish, ta’limda innovatsionlik, dialogiklik, kontekstlik, amaliy yo‘nalishlik, akmeologik-yo‘nalish tashkil etuvchi pedagoglarning ta’lim-tarbiya faoliyatidagi integrativ yondashuvi, refleksiv (o‘z ruhiy holati haqida o‘ylash, fikr yurgizish, uni tahlil qilish) ga oid treninglarni va kasbiy-motivatsiya treninglari, vitagenli va o‘yinli ta’lim metodlari qo‘llaniladi.

Oliy ta’lim tizimida akmeologik yondashuvni amalga oshirish bosqichlarining psixologo-pedagogik omillari aniqlanib, bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini tayyorlashda akmeologik yondashuvni qo‘llash mexanizmi va uni amalga oshirish tuzilmasi ishlab chiqiladi hamda akmeologik yondashuv asosida ta’limni rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari yoritiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: O‘zbekiston, 2017. 146-157 betlar.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. -T.: O‘zbekiston, 2017. «Ma’rifat», 2016-yil 8-dekabr, № 98.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni.
4. Azizxodjayeva N.N . Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O’quv qo’llanma.-T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi, 2006. 101-112 betlar.
5. Axmedova M.T. Pedagogik kompetentlik. O‘quv qo‘llanma. -T.: brok classervis, 2016. 76-84 betlar.
6. Tillayeva G. H. akmeologiya asoslari. O‘quv qo‘llanma. –T.:”Tafakkur bo’stoni”, 2014. 38-50 betlar.
7. Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning zamonaviy shakllari pedagogic muammo sifatida. http://openscience.uz
8. Ernazarova G. O, Isroilov Q. T. Bo‘lg‘usi tarix o‘qituvchilarida kreativlikni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari. Akademic research in educational sciences, 2021. –P.1613-1621. https://doi.org/10.24411/2181-1385-2021-00780
9. Islamova M. Sh., Isroilov Q. T. Bo‘lajak kadrlarni ijodiy va mustaqil fikr yuritishga hamda nutqiy faollikka undovchi metodlar. «XXI asr ta’lim tizimida innovatsion va integratsion yondashuvlar» mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi. Jizzax-2021. 121-126 betlar.